

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA BADIY SAN'ATLAR

**Esanova Sabrina Zavqiddin qizi**

*Buxoro davlat universiteti Filologiya*

*fakulteti 4- bosqich talabasi*

[esanovas21@gmail.com](mailto:esanovas21@gmail.com)

**Annotatsiya:** maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, badiiy san'atlardan foydalanishdagi shoirlik mahorati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** shoh, shoir, g'azal, vatan, radif, memuar, qofiya, janr, ijod, konsepsiya, realistik tasvir, nido, takrir, ishtiyoq.

Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk Boburiylar sulolasining asoschisidir. Bobur hayoti davomida boshidan kechirganlarini hasbi hol tarzda "Boburnoma"da aks ettiradi. Bundan tashqari biz bu buyuk sarkarda haqidagi bir qancha qimmatli ma'lumotlarni Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" hamda mashhur tarixchi Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" kabi "Boburnoma" maqomiga yaqin turuvchi asarlar orqali bilib olishimiz mumkin. Shoir g'azallari milliy ruh poetik ifodasining yaqqol namunasi bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bobur ijodi adabiyotimizning eng mukammal bir qismi sanaladi, xususan, undagi janrlar o'zgacha bir e'tirofga sazovordir. Shoir ijodida tanosub, talmeh, tazod, iyhom, istiora, tajnis, tajohuli orif, ishtiyoq, sajj', nido, ta'did kabi san'atlar muhim o'ringa ega. Ijodkor ularning har biridan oqilona va o'rinli tarzda foydalangan. "Yaxshilig" radifli g'azali fikrimizning yaqqol dalilidir:

Kim ko'ribdur, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilig',

Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'.

Keltirilgan baytda "yaxshilig'" so'zi radif bo'lib, shoir nido san'atini „ey shoir“ deya murojaat qilish orqali vujudga keltirgan, "yaxshilig'" so'zini ikki misrada takrorlash orqali takrir, ishtiyoq san'ati "yaxshi", "yaxshilig'" kabi o'zakdosh so'zlar yordamida yuzaga keltirgan, misralarda tanosib, tardi aks kabi san'atlardan ham unumli qo'llagan. Buyuk shaxslarning dunyoqarashi boshqa shaxslar nuqtayi nazaridan tubdan farq qiladi. Negaki, ular o'zlari erishgan kamolotning yuksak darajasida fikr yuritadilar. Baytda Bobur ahli jahondan kim ham yaxshilik ko'ribdi, modomiki, shunday ekan undan yaxshilig' kelishiga ko'z tutma, deya ifodalaydi va "ko'z tutma" 'deyish orqali chinakam o'zbekona lutf qiladi.

Gar zamonni nafy qilsam ayb qilma, ey rafiq,

Ko'rmadim hargiz netayin, bu zamondin yaxshilig'.

Nafy-arabcha rad qilmoq. Baytda ijodkor, yaxshi-yomonni, yomon-yaxshi kabilardan qo'llab kontrast va qarama-qarshi so'zlar orqali tazod san'atini hamda

“ey rafiq”, deya nido san'atini yuzaga keltirgan.

Dilrabolardin yamonlig' keldi mahzun ko'ngluma,

Kelmadi jonimg'a hech oromi jondin yaxshilig'.

Bunda lirik qahramon jonimga oromijondan, ya'ni ma'shuqadan hech yaxshilik kelmadi, faqat mening ko'nglimga ulardan mahzunlik keldi demoqchi. Oshiq o'z ma'shuqasidan yomonlik kelganini aytmoqchi. Bundan tashqari baytda oromijon deya o'z ma'shuqasiga ishora qilib, ijodkor istiora san'atini yuzaga keltirgan, “yaxshilig” va “yomonliq” kabi zid ma'noli so'zlar orqali tazod, san'atidan foydalangan.

Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung, yamonlig' asr-u ko'p,

Emdi ko'z tutmoq ne, ya'ni har yamondin yaxshilig'.

“Ey ko'ngul” deya shoir o'z ko'ngliga murojaat qilib, nido san'atini vujudga keltirgan. Yaxshidan ko'p yomonliklarni ko'rding, endi yana har bir yomondan yaxshilik kutishning nima foydasi bor, deya “yaxshi” va “yomon” kabi zid ma'noli so'zlardan tazod san'atini yuzaga keltirgan.

Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,

Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.

Baytda shoir umringning oxirigacha yaxshilik qilg'ilki, aslida bundan yaxshirog'i yo'qligini ta'kidlaydi. Bu dunyoda sendan yaxshilig' qoldi deb aytsinlar deya shoir o'z fikrlarini yanada yorqinroq aks ettiradi.

Yaxshilig' ahli jahondin istama Bobur kibi,

Kim ko'ribdur, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilig'.

Maqta'da shoir Bobur kibi jahondin yaxshilig' istamagin ,kim ko'ribdi jahon ahlidan yaxshilig'. Ey ko'nglim, ahli jahondan yaxshilig' istama, deya yana nido san'atini yuzaga keltiryapti. G'azal yig'iq radifli bo'lib, radifi “yaxshilig”so'zidir. G'azalda Bobur hayoti davomida ko'rgan kechirgan jabr-u sitamlari qalamga olinadi. G'azalda milliy ruh hamohang yaratilgan bo'lib eliga, xalqiga yaxshilik qilish, uning g'amida kuyib-yonish kabi vatanparvarlik tuyg'ulari singdirilgan. Ulug' shoirning bunday falsafiy to'xtamga kelishi zamirida ham ulkan ma'no bor. Ze'ro, o'zbek xalqi nafaqat o'z xalqi, balki o'zga xalqlarga ham insonparvarlik qila olishiga qayta -qayta tarix guvoh bo'lib kelmoqda. Al-Jozih “,Fazoyili atrok”(“Turkiylarning fazilatlarini”) asarida ajdodlarimizning rostgo'y, pokiza, qalbi yomon fikr-u xurofotlardan yiroq ekanligini aytib o'tgan edi. Bobur lirikasida mavzular olami rang- barang. Shoir lirikasida sofiyona mayllar

borligini guvohi bo'lamiz. Shoir ijodida Vatan sog'inchi mavzusi yetakchilik qiladi. Bundan tashqari Bobur ishq mavzusida hamsamarali ijod qilgan.

Masalan, "Men ne qilay?" radifli ruboiysi ishqiy mavzuda yozilgan ruboiylari sirasiga kiradi.

Ishqingda ko'ngul xarobdur, men ne qilay?

Hajringda ko'zum purobdur, men ne qilay?

Jismim aro pech-u tobdur, men ne qilay?

Jonimda ko'p iztirobdur, men ne qilay?

Ruboiyning birinchi misrasida yor ishqida oshiqning kóngli xarobligini, ahvoli vayron, nochor ekanligi, oshiqning yor dastidan ne ish qilishini bilmay qolganligi bilan birga, Allohga bo'lgan muhabbati ham aks ettirilgan. Baytda "xarob", "purob", "iztirob", "tob", "ishq", "hajr" hamda "jism", "jon" so'zlari tanosub san'atini yuzaga keltirgan. Ishq va hajr so'zlari bir-biriga zid tarzda tazod san'atini yuzaga keltirgan. Ruboiyda oshiq ey yor, sening ishqingda ko'nglim xarob, hajringda oshiq kózlarim purob, ya'ni yoshga tóla deya ifodalab, bu dardga davo bólmish yori yóqligidan nima ish qilishini bilmay qolganligi, shunday sharoitda sen bo'lmasang, men ne qilay degan mazmun yotadi ruboiyda. Ruboiy aruzning rajaz bahrida, rajazi musaddasi maqsur vaznida yozilgan. Ruboiyda "xarob", "purob", "tob", "iztirob" sózlari qofiya sanalib, "r" tiringak tovushi raviy sanaladi. "Men ne qilay" jumlasida esa yoyiq radifdir.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilgan holda hech ikkilanmay Bobur Mirzo ijodida yorga, Allohga, Vatanga bo'lgan muhabbatini aks ettirganligining guvohi bo'lamiz. Shoir ijodida falsafiy mushohadadan tortib, ilohiy ishq istaklarigacha singdirilgan g'oyalar yetakchilik qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov. R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi . -Toshkent. 2006.
2. Bobur. Boburnoma. -Toshkent.2007.
3. Davron. X. Mirzo Boburning ikki ruboiysi sharhi. -Toshkent.2006.
4. Oybek. MAT. 19 tomlik 18-tom. -Toshkent.1981.
5. Qodirov P. Yuduzli tunlar. -Toshkent. 2009.